

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
JOQARÍ HÁM ORTA ARNAWLÍ BILIMLENDIRIW MINISTRILIGI
ÁJINIYAZ ATÍNDAĖÍ
NÓKIS MÁMLEKETLIK PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ



«Tálim-tárbiyaniń sapasın asırıwda ilimiy-innovaciyalıq texnologiyalardı ámeliyatqa engiziw máseleleri» atamasındaĖı
Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq Online konferenciya

MATERIALLARÍ

14-15 aprel

«Ta'lim-tarbiyaning sifatini oshirishda ilmiy-innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalalari» mavzusidagi
Xalqaro ilmiy-nazariy Online anjuman

MATERIALLARI

14-15 aprel

МАТЕРИАЛЫ

Международной научно-теоретической
Online конференции на тему «Вопросы внедрения в практику
научно-инновационных технологий в повышении качества
обучения и воспитания»

14-15-апрель



NÓKIS-2021

UDK
37.0.372.8
BBK 74.2
T-16

«Tálim-tárbiyanıń sapasın asırıwda ilimiy-innovaciyalıq texnologiyalardı ámeliyatqa engiziw máseleleri» atamasındaǵı Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq online konferenciya materialları toplamı. - Nókis.: 2021 j. 429 b.

«Tálim-tárbiyanıń sapasın asırıwda ilimiy-innovaciyalıq texnologiyalardı ámeliyatqa engiziw máseleleri» atamasındaǵı Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq online konferenciya materiallarına Ózbekstan Respublikasınıń joqarı hám orta arnawlı oqıw orınları pedagog-xızmetkerleri, úlken ilimiy xızmetker-izleniwshiler, magistrantlar, talabalar hám ulıwma orta bilim beriw mektepleri baslawısh klass oqıtıwshıları, sonday-aq pedagogika, psixologiya pánin oqıtıwdıń aktual máselelerine arnalǵan ilimiy bayanatları kirgizilgen.

Esletpe: Elektron toplamda berilip atırǵan materiallardaǵı maǵlıwmatlar, plagiat kórinisleri, mazmunınıń hám ondaǵı kórsetilgen dereklerdiń durılıǵına avtorlar ózleri juwapker

Redkollegiya quramı:

1. **B.P. Otemuratov** - Institut rektori, redkollegiya baslıǵı
2. **P.J. Kalxanov** - İlimiy isler hám innovaciyalar boyınsha prorektor, redkollegiya baslıǵı orınbasarı
3. **Q.A.Qodirov** - Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Jaslar menen islesiw boyınsha prorektor
4. **U. Seytjanova** – Baslawısh tálim fakulteti dekanı
5. **A.T.Allamuratov** – İlimiy-izertlewler, innovaciyalar hám ilimiy pedagog kadrlardı tayarlaw bólimi baslıǵı, baslıq orınbasarı

Redkollegiya aǵzaları:

1. **Z.K. Kurbaniyazova** – Baslawısh tálim kafedrası baslıǵı, p.i.k., docent
2. **G.A. Qallibekova** – Baslawısh tálim kafedrası docenti, p.i.k
3. **S.S. Tajbenova** - Baslawısh tálim kafedrası docenti, p.i.f.d (PhD)
4. **N.M. Nagmetova** – Baslawısh tálim kafedrası docenti, p.i.f.d (PhD)
5. **A.K.Kadrekova** - Baslawısh tálim kafedrası oqıtıwshısı, p.i.f.d (PhD)
6. **B.K.Xojanov** – Baslawısh tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı
7. **Z.B.Turımbetova** - Baslawısh tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı
8. **A.D.Najimova** - Baslawısh tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı
9. **T.A. Baynazarov** – Baslawısh tálim kafedrası oqıtıwshısı, moderator
10. **Z.Í.Xudaybergenova** – Baslawısh tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı

Pikir bildiriwshiler:

1. **X.Í.Alyaminov** – Berdaq atındaǵı QMU. p.i.k., docent.
2. **N.M.Nagmetova** - Ájiniyaz atındaǵı NMPI. docent w.w.a, p.i.f.d (PhD).

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA MAKTABGACHA TARBIYA TASHKILOTI VA MAKTAB HAMKORLIGI

G.E.Kushakova – Jizzax DPI dotsenti v.b.

Bolalar bog‘chasi bilan maktab o‘rtasida o‘rnatiladigan hamkorlikning xar tomonlamaligi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir.

Bolalar bog‘chasi va maktab o‘rtasidagi bog‘liqlik bir tomondan bolalarni maktab ta‘limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan xolda maktabga o‘tkazishni, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining katta bog‘cha yoshidagi bolalarning yegallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o‘quv tarbiyaviy jarayonda foydalanishni taqozo yetadi.


Bolalar bog‘chasi va maktab o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik katta bog‘cha yoshidagi bolalar va maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha tarbiya muassasa xodimlari birinchi sinfdagi bolalar oldiga qo‘yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta‘lim olishga tayyorlashlari kerak.

Maktab va bog‘cha o‘rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko‘p tomonlama tuzilishga yega. Unda ta‘lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Bunda quyidagilarga yetibor berish kerak:

- maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq yegallab olishlari lozim;
- bog‘cha nuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantirish zarur;
- bolalarni maktabga ruxiy tayyorligi.



Bu yerda vazifa bolalar mehnatning xar qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat- bilishga qiziqishni o‘stirish, ularni kelajakdagi mustaqil xayotga tayyorlashdan iborat.

Maktab bilan bog‘cha o‘rtasida o‘zviy aloqa asosini bolalar bog‘chasi va maktabda amalga oshiriladigan ta‘lim – tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tashkil yetadi.

Hozirgi boshlang‘ich sinflar dasturi bilan bog‘cha dasturini olib solishtiradigan bo‘lsak, ular o‘rtasida birqancha o‘zaro bog‘liqlikni ko‘ramiz. Bu yeng avvalo dasturlarda asos qilib olingan prinsiplarning umumiyliigi bilan belgilanadi. Ularning mazmuni bolalarni har tomonlama tarbiyalash maqsad va vazifalariga mos kelish prinsipi, hayot bilan bog‘liqlik, ilmiylik prinsiplari, ta‘limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatga yegaligi va falsafiy, ruhiy nuqtai nazarlarning birligida namoyon bo‘ladi.

Birinchi sinf o‘quv dasturi ayrim predmetlar bo‘yicha bolalar bog‘chasi dasturi bilan

solishtirganda ularda umumiylik ko'pligini ko'ramiz. Masalan, bolalar bog'chasida ona tiliga o'rgatish va boshlang'ich sinflardagi ona tili darsiga bolalar nuqtai har tomonlama rivojlantirish kabi umumiy g'oya asos qilib olinadi.

Bolalar bog'chasi bu ish bolalarning lug'atini boyitish, tovushlarni to'g'ri talaffo'z qilishga, ifodali o'qishga o'rgatish, bog'langan nutqni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Maktabda yesa bolalarda mana shu bog'chada yegallangan bilim, malaka, tushunchalarga asoslanib, yozma nutq malakasi, orfografiya xat malakasi shakllantiriladi, ularga morfologiya va sintaksis yelementlari o'rgatiladi. Shu bilan bir qatorda bog'chada boshlangan bolalar lug'atini boyitish, nutqning ifodaliligi, bog'langan nutqni rivojlantirish davom yettiriladi.

Bolalar bog'chasida ham, maktabda ham tabiashunoslik to'g'risidagi bilimlar organizm bilan muhitning birligi to'g'risidagi umumiy g'oyaga asoslangan holda olib boriladi. Shu asosda bolalarga jonli va jonsiz tabiat, tabiat va kishilar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida bilim va tushunchalar beriladi.

Bolalarni maktab va o'quvchilar hayoti bilan tanishtirish. Boshlang'ich sinf o'quvchisi va bog'chaning tayyorlov guruhi tarbiyachisi tayyorlov guruhi bolalarini maktab bilan tanishtirish bo'yicha yekskursiya uyushtiradilar. Bunday yekskursiyalar yil davomida 3 marta o'tkazilishi mumkin. Yekskursiya paytida katta va tayyorlov guruhi bolalari maktab o'quvchilari bilan tanishadilar, ular bog'cha bolalariga o'zlarini maktabdagi o'qishlari, ishlari to'g'risida gapirib beradilar; o'quvchilar xonasini qanday bezaganliklari, tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilayotganliklari, ustaxonada qanday ishlarni bajarayotganliklarini ko'rsatadilar.

Ish shakli quyidagicha bo'lishi mumkin:

- sinfda «Rasmga qarab so'zlab berish» mavzusidagi dars – mashg'ulotni birga o'tkazish. Sport maydonchasida yoki sport zalida maktabdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotini birga bajarish;

- birinchi sinf o'quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari ishlagan rasmlarni birgalikdagi ko'rgazmasini tashkil yetish;

- maktab ustaxonasida o'quvchilarni mehnat mashg'ulotini kuzatish. O'quvchilar o'zlari tayyorlagan o'yinchoqlarni bog'cha bolalariga sovg'a qilishadi;

- maktabda o'qiyotgan bolalar o'z bog'chasiga kelishadi;

- «Maktab» o'yini tashkil yetish.

Bolalar bog'chasi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatiga izchillik yaqqol namoyon bo'ladi. Biri bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishni boshlaydi, ikkinchisi davom yettiradi. Maktab bilan bog'cha o'rtasidagi aloqa mustahkam bo'lgandagina bola tarbiyasidan ko'zlangan maqsadga yerishish mumkin.

Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari. Bog'cha va maktab o'rtasidagi aloqa ikki yo'nalishda olib boriladi:

- bolalar bog'chasi bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rtasidagi aloqa;

- bog'cha bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-birlariga yaqinlashtirish.

Tarbiyachilar boshlang'ich sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmunini, o'ziga xos tomonlari bilan tanishadilar, natijada bog'chada bolani maktab talabi darajasida tayyorlash istiqbollari belgilab olinadi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta'lim berishda bolalar yegallagan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslanadilar.

Bolalar bog'chasi bilan maktab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan bog'cha o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun bolalar bog'chasi va

maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni chuqur taxlil qilib, bu soxada yuqori natijalarga yerishishdir.

Bolalar bog'chasi bilan maktab pedagogik tashviqot, metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-biri bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari bolalar bog'chasi maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisining va birinchi sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, maktabga tayyorlov guruhi va 1-sinf dasturi mazmunini, tayyorlov guruhi bolalari v maktabdagi 1- sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo yetadi.

Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi bog'chaning tayyorlov guruhida va maktabning 1-sinfida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishdagi faoliyat shakllari va usullari bilan o'zaro tanishishni taqozo yetadi.

Bu masalada bog'chaning tayyorlov guruhi tarbiyachilari maktabning 1-sinfida olib borilayotgan darslarni ko'zatadilar va dars, mashg'ulotlardan keyin birgalikda yig'ilishib uni muxokama qiladilar, ayrim metodikalar bo'yicha seminar-praktikularda qatnashadilar: ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish, brlarni maktabga tayyorlash bo'yicha yoki 1-sinfda bolalarga bilim berish bo'yicha pedagogik kengashlarni o'tkazadilar.


Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomondan, o'qituvchi bog'chaning tayyorlov guruhiga borib o'zining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan, tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilarini birinchi sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar.

Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga amal qilish lozim. Bog'cha bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalga oshirilib borilishi, u uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi, amalga oshiriladigan ishlar, hal qilinadigan masalalar rejali tusda bo'lishi zarur.

Hamkorlik asosini birgalikda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil yetib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim.

Maktab bilan bog'cha yil davomida manna shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi.

Bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil maktabga yekskursiya uyushtirish, sinf xonasiga, kutubxona, bayram yertaliklari o'tkazish va boshqalardir.



Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirilib borilsa, birgalikdagi ishlar bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga yerishish mumkin. Bu yesa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ularning maktabda qiynalmay o'qib ketishlarida yaxshi samara beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil yetish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017.

3. Kushakova G. Maktabdagi yoshdagi bolalarni tolerantlik ruxida tarbiyalash, Архив Научных Публикаций ЖСПИ, 2020. Архив №58 (sciencye.i-yedu.uz, jspi.uz).

4. Kushakova G. O‘quvchilarda bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirish metodikasi, Архив Научных Публикаций ЖСПИ, 2020. Архив №58 (sciencye.i-yedu.uz, jspi.uz).

ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИ ЎЙҒОНИШ ДАВРИДА БОШЛАНҒИЧ СИНОФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

З.К.Курбаниязова - Нукус ДПИ

Бошланғич таълим кафедраси мудири, п.ф.н., доцент

Маълумки, тадрижий йўл билан юртимизнинг барча соҳаларида янгиланишлар амалга оширилиб, фуқароларнинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларнинг ҳаётини яхшилашга доир кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Ушбу янгиланиш ва ривожланишлар негизда юртбошимиз томонидан Ўзбекистон Республикасининг 29 йиллик байрамини нишонлаш арафасида “Янги Ўзбекистон” тушунчаси алоҳида эътироф этилиб, Шарқ давлатларининг ўчинчи ренессанс даврига тамал тоши қўйилди.

“Ренессанс” тушунчаси “ўйғониш”, “янгидан туғилиш” маъноларини билдириб, давлат ва жаmiатда дунё цивилизациясига, илм-фан, маданият ва санъатнинг ривожланиши, тикланиш давларини ўз ичига олган “ўйғониш даври” тушунчасининг вужудга келишига замин яратган. Янги Ўзбекистоннинг ривожланиши эса фундаментал ва методологик асосга эга. Агарда IX-XII асрларни ўз ичига олган биринчи ренессанс даврида Абу Наср Форобий, Унсурулмаолий Кайковус, Муҳаммад аль Хоразмий, Абу Али ибн Сино, Абу Райхон Беруний, Аҳмад Фарғаний сингари аниқ фанларнинг намоёндолари билан бир қаторда Имам аль Бухарий, Ҳаким ат Термизий, Абу Мансур Матуридий, Махмуд Замахшарий сингари ислом маданиятини ривожлантириш ва уларни ёшларни маънавий-ахлоқий руўҳда тарбиялашдаги аҳамиятини асослаб берган бўлса, иккинчи ренессанс даври XIV-XVI асрлар, яъни Темурийлар даври тараққиёти билан боғлиқ. Бу давр Соҳибқирон Амир Темурнинг бунёдкорлик ишлари, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Али Қушчи, Заҳириддин Муҳаммад Бобур сингари кўплаб олим-энциклопедистлар дунё цивилизацияси, илми, маданияти ва санъатининг ривожига ҳисса қўшган. Шарқ давлатлари цивилизациясининг юқоридаги тарихий тажрибасига асосланган ҳолда XXI аср Ўзбекистон Республикасида Шарқ ренессанс даврининг ўчинчи босқичига тамал тоши қўйилди дейиш мумкин. Буни юртимиздаги фан ва техника, таълим ва маданият, сиёсий, ижтимоий-иқтисодий соҳаларнинг шиддат билан ривожланиш жараёнларидан кўриш мумкин. Айниқса, таълим соҳасида ёшларимизнинг замонавий

таълим олиши, миллий-маънавий кадриятларимизни чуқур ўрганиши, турли соҳаларда илмий татқиқот ишларини олиб бориши, жаҳон тажрибаларини ўрганиши, хорижий илғор тажрибаларни амалиётга татбиқ этиши, замонавий илм ва техниканинг чўққиларига эришиши учун тўлиқ шароитлар яратилди. Юртимизда қабул қилинган узлуксиз таълим тизимида педагогларнинг тутган ўрни алоҳида бўлиб, уларнинг ижтимоий нуфузи қайта тикланди. Бу борада бўлғуси педагогларнинг инновацион салоҳиятга эга бўлиши, тез ўзгарувчан шароитларга нисбатан мослашувчан бўлишини замоннинг ўзи талаб этмоқда. Шу боис ҳам олий таълим муассасалари бўлажак педагогларининг ижтимоий-педагогик компетентлигини замон талабларига жавоб бера оладиган даражада ривожлантириш, таълимни тубдан ислоҳ қилиш, мазкур тизимни янги сифат босқичига кўтаришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади. Шунга қарамасдан, бўлажак педагог кадрларнинг ижтимоий ҳаёт талаблари доирасида, ўзгарувчан ва сўнгги янгиланишларга мос фаолият юритишига тайёрлашда айрим ҳолларда салбий ҳолатларнинг ҳам мавжудлигини кўрсатмоқда. Жумладан:

амалдаги малака талаблари, ўқув режа ва дастурлари мазмун жиҳатидан битирувчиларда амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтирилмаган, ўқув режаларида номутохассислик фанлари улуши юқориликча қолмоқда;

олий таълим муассасалари ва кадрлар буюртмачилари билан ўзаро ҳамкорликда кадрлар тайёрлаш бўйича ишлар самарали йўлга қўйилмаган, иш берувчиларнинг олий таълим мазмунини шакллантиришдаги иштироки етарли эмас;

талабаларда танқидий фикрлаш, ахборотни мустақил излаш ва таҳлил қилиш кўникмалари шакллантирилмаган;

ишлаб чиқариш корхоналарида амалий машғулотлар самарали ташкил этилмаган, тайёрланаётган мутахассислар малакавий даражаси меҳнат бозорининг замонавий талабларига етарлича жавоб бермайди;

олий таълимда маънавий-ахлоқий мазмунни кучайтириш, ёшларни миллий кадриятларга ҳурмат, инсонпарварлик ва юксак маънавий ғоялар асосида ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларда ёт ғоя ва мафқураларга қарши иммунитетни мустаҳкамлаш борасидаги ишларни янада ривожлантириш зарурати мавжудлиги алоҳида эътироф этилмоқда [1].

Ваҳоланки, бўлажак педагоглар – бу ижтимоий-педагогик компетентликка эга бўлиши зарур бўлган мутахассислар тоифаси бўлиб, унинг шаклланиши ОТМда таълим олишининг дастлабки йилларидан бошланиши керак. Таълимни модернизациялашга доир қатор ҳужжатларда компетенциявий ёндашув таълим мазмуни, шу жумладан касбий-педагогик таълимни янгиланишининг муҳим концептуал қоидаларидан бири сифатида белгилаб берилган. Ижтимоий-педагогик фаолият соҳасида компетентли шахс сифатида биз ушбу фаолият бўйича кўпроқ тажрибага эга бўлган ўқитувчини эмас, балки мазкур йўналишда аниқ билимларга эга, ишни ташкил этишнинг махсус турига эга бўлган ва қийин ижтимоий вазиятларда педагогик асосланган қарорлар қабул қилиш қобилиятига эга мутахассисни тушунамиз. Бизнинг фиримизча, бошланғич синф ўқитувчисининг ижтимоий-педагогик компетентлиги ҳар қандай педагогик мутахассислик бўйича мутахассиснинг ижтимоий-педагогик компетентликни ривожлантиришнинг асоси бўлиб хизмат қилади. Ғ.Ғулом, Ғайратий, О.Шарафиддинов, И.Хусанхўжаев, К.Қосимова [2], Р.Мавлонова, О.Ҳасанбоева, Қ.Пирниязов, С.Мажитов, Қ.Қосназаров, Ж.Қайырбаев, Н.Бекниязова, А.Пазылов ва А.Тилегеновлар сингари бошланғич мактаб ва бошланғич таълим фидоийлари болаларга назарий ва амалий билим беришга ҳамда уларни ижтимоий ҳаётда қўллаш олишга доир ўзларининг илмий-назарий ва

илмий-методик тавсияларини беришган. Ваҳоланки, бошланғич синф ўқитувчиси ўқувчининг шахсини ижтимоий жиҳатдан шакллантиришнинг фундаментал асосларини яратади, бунинг асосида бола мактабдаги ўқишининг кейинги босқичларида ривожланиб боради. Ўқитувчининг ўқувчиларнинг ота-оналари билан ўзаро муносабатлари, яъни ўқувчиларнинг ота-оналари билан яқиндан алоқа қилиш, кўпчилик ота-оналарнинг ўқитувчи билан ҳамкорлиги, унга ишончи, ўқитувчи билан аксарият ҳолларда низосиз муносабатларни ўзига хос хусусиятлари яна бир муҳим жиҳат ҳисобланади. Айнан шу хусусиятлар бошланғич синф ўқитувчисига таълим жараёни билан боғлиқликда ота-оналарнинг нуқтаи назарини шакллантириш, уларни қизиқтириш, мактаб ҳаётининг фаол иштирокчиларига айлантиришга ёрдам беради.

Умуман, бўлажак ўқитувчи учун ижтимоий-педагогик компетентлиликнинг муҳимлигини таъкидлаган ҳолда, ушбу сифатнинг ривожланиши унинг ўзгарувчан ижтимоий-иқтисодий шароитларга мослашишига, мазкур ўзгаришларга ўз вақтида ва педагогик жиҳатдан мақсадга мувофиқ жавоб беришга тайёрлигига ижобий таъсир кўрсатади, деган хулосага келдик. Дунёқарашни кенгайтириш, дунё, қадриятли муносабатлар тизими, мустақил билим олиш учун мотивация, ўз касбига қизиқишига яхлит бир нуқтаи назарни шакллантиришга имкон беради. Бунда ўқитувчиларнинг касбий педагогик функцияларини ривожлантиришда сифат ўзгаришлари содир бўлиб, улар ижтимоий-педагогик фаолият асосида ётадиган ахлоқий қадриятларни амалга ошириш; ўқувчиларга педагогик ёрдам кўрсатиш ва қўллаб-қувватлаш; ижтимоийлашув жараёнида болага яқиндан ёрдам бериш, таълим жараёнининг барча субъектлари ўртасидаги муносабатларни уйғунлаштиришга йўналтирилганлиги (ўқитувчилар, ота-оналар, ўқувчилар); индивидуал ва гуруҳий фарқларни ҳурмат қилишда яққол намоён бўлади. Қоидага мувофиқ, бундай ўқитувчилар ўқувчиларнинг ижтимоий ва шахсий ривожланиши учун шароит яратиб, ижтимоий адолатни таъминлашга интилишади, шахсий ва касбий одоб-ахлоқнинг юқори стандартларига интилишади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.

2. Педагогика тарихидан хрестоматия: Ўқув қўлланма. /Тузувчи-муаллиф О.Ҳасанбоева. - Т.: Ўқитувчи, 1992. – 208 б.

3. Новый Узбекистан и третий Ренессанс. <https://yuz.uz/ru/news/novy-uzbekistan-i-tretiy-renessans>

4. Особенности образования в эпоху Возрождения. <https://spravochnick.ru/pedagogika/>